

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA TARIX FANINI O‘QITISH ORQALI
MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKILLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Teshayev Azizbek To‘ynor o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix) ixtisosligi tayench doktoranti, Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak pedagoglarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda Tarix fani va uni o‘qitishda madaniy merosi namunalari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Pedagog, madaniy meros, illiy iftixor, milliy g‘urur, vatanparvarlik.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Mustaqillik yillarida Tarixni xolisona o‘rganish, o‘zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. Big ma’lumki xar bir xalqning tarixi, kelib chiqish ildizlari milliy iftixor tuyg‘usini shakllantiradi. Bu omil esa o‘z binobarida mamlakat va jamiyatning rivojlanishida eng muhim unsur hisoblanadi. Jadidlar ta’biri bilan aytganda “Millatning tarbiyachisi bo‘lmish tarix fani” bugungi kunda o‘zining asl maqsadini- xalqning o‘zligini anglatishga xizmat qilmoqda.

Milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lish har bir millatning milliy o‘zligini anglashida mustahkam asosdir. Milliy iftixor shaxsning muayyan millatga mansubligi, uning milliy etnopsixologik xususiyatlari hamda ushbu millat tomonidan jahon tamadduniga qo‘shilgan hissadan faxrlanish, o‘zi mansub bo‘lgan millatga sadoqat hissini tuyish, muhimi - bu yo‘lda amaliy faoliyat ko‘rsatishdan iboratdir.

Markaziy Osiyoda yashab, ijod etgan buyuk allomalarining shaxs kamoloti to‘g‘risidagi qarashlari zamonaviy bosqichda jahon ta’limi uchun muhim asosdir. Milliy pedagogik qadriyatlarni mavjud sharoitda demokratik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim mazmuniga insonparvarlik va demokratik g‘oyalarni singdirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish-davr talabidir. Shu sababli, o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda estetik tarbiya usullarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqi tarixini puxta bilish, tarixiy jarayonlar mohiyatini to‘g‘ri anglash, ijtimoiy voqeа-hodisalarga ongli munosabat, xalq qahramonlarining faoliyatidan ibrat olish o‘quvchilarning milliy iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Milliy iftixor ijtimoiy-psixologik hodisa, milliy iftixor tuyg‘usiga egalik esa, ma’naviy-axloqiy sifat bo‘lib, u samarali tashkil etilgan ijtimoiy tarbiya jarayonida shakllanadi. Milliy iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishda shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, bilim darajasi, dunyoqarashi, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga faol munosabati muhim o‘rin tutadi.¹

Bundan kelib chiqish mumkinki, fanlarni o‘qitish orqali milliy iftixor tuyg‘usini shakillantirish texnologiyalari bugungi kun fanining eng dolzarb masalasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ METHODS)

Bugungi kunda ta’limda milliy iftixor tuyg‘usini shakillantirish texnologiyalari ustida olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanib, bu yo‘nalishda bir qancha olim va olimalarimiz izlanishlar olib borishmoqda.

Xususan, D.I.Ro‘ziyeva, A.R.Rahmonov, G.Ernazarova kabi tadqiqotchilarimiz o‘zlarining tadqiqotlarida milliy iftixor tuyg‘usini shakillantirish texnologiyalari bo‘yicha bir qancha ilmiy yangiliklar va takliflarni ilgari surishgan. Fan metodologiyasi, o‘tish texnikalari, zamonaviy vositalarning bo‘lajak pedagog va

¹ Maxmudova Dilorom Inoyat qizi, Isabayeva Dilfuza Komiljonovna, Holqova Madina Komilovna. Iqtidorli o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda estetik tarbiya usullarini qo‘llash. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 4) 294-bet

talabalarga psixologik tasiri, axloqida kuzatiladigan natijalar, sifat ko'rsatkichlari chuqur tahlil o'rganilgan. Ushbu izlanishlarni kuzatish davomida ularni rivojlantirish va izchil davom ettirish mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Pedagogik faoliyat davomida o'qituvchi talaba bilan bevosita yoki bilvosita muloqotda bo'ladi va ushbu jarayonda ijtimoiy-axloqiy munosabatlar ham shakillana boradi. Ushbu jarayonda pedagogning va texnologiyalarning ahamiyati birlamchi hisoblanadi. Quyidagi tajribalarda milliy iftixor tuyg'usini shakilantirish darajasi samarali kechgani ko'p bor kuzatilgan:

- Darslar bevosita tarixiy obidalar yoki voqealar bo'lib o'tgan hududlarda olib borilgan, yoki voqalarning to'g'ridan to'g'ri shohidlari bilan suhbatlar olib borilgan
- Darslarda tarixiy jarayonlar zamonaviy texnologiyalar orqali qayta virtual jonlantirilgan
- Darslar suhbat tarzida olib borilgan
- Darslar yakunida psixologik va sotsiologik so'rovnomalar o'tkazilgan

Ushbu tajribalarning yutuqli tomoni shuki, texnologoyalarning psixologik tasiri talabalarda uzoq vaqt saqlanib qoldi va kuchli ijtimoiy tasirni hosil qildi. Talaba yoki o'quvchi o'z yoshidan kelib chiqgan holda erkin fikr yurita olish, tahlil qila olish va tanqidiy fikrlash mahoratlariga ega bo'la boshladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Tezkor rivojlanish davomida bu mavzudagi tadqiqotlar dolzarbliyi yanada oshib bormoqda. Avvalo bu jarayonlarda tadqiqotchilar texnologiyalar rivojlanishi va inson psixologiyasi o'sishi orasidagi geometrik noteng progressiyani puxta tahlil qilib ulgurishmadi.

Ikkinchidan, tadqiqotlarda metodologiyaning jamoaviy va individual tasirlari yangi tadqiqotlarga muhtoj. Chunki, aynan shu omil bugungi kun pedagogikasi muammolaridan biri hisoblanadi. Misol qilib olganda ta'lim shakillarining inson resurslariga adaptatsiyanini xorijiy davlatlar tajribasida ko'rib kelmoqdamiz.

O‘quv faoliyatini samarali amalaga oshishida o“quvchilarga quyidagi pedagogic yondashuvni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir;

1. Kognitiv yondashuv:

- kerakli ma’lumotlarni qidirish va tanlash;
- kognitiv tashabbusning namoyon bo‘lishida, ramziy-belgi harakatlar, ularning yordamida ob’ektning muhim xususiyatlari o“rganiladi;
- bilimlar tarkibi;
- og‘zaki va yozma shaklda nutqiy so‘zlarni tushunish;
- ob’ektlarni tahlil qilish va xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish (muhim yokim ahamiyatsiz);
- sabab va oqibat aloqalarini o‘rnatish va boshqalar.

2. Normativlar asosida yondashuv:

- o‘zaro nazorat va tuzatish;
- davlat ta“lim standarti asosida;
- haqiqiy harakat va uning natijasi o‘rtasida tafovut kuzatilsa;
- harakatlar rejasi va usuliga zaruriy qo‘shimchalar va tuzatishlar kiritish;
- umumiyl natijani o“quvchilar o“qituvchining bahosiga asoslanishi;
- Pedagogik faoliyatning natijalariga o‘zgartirishlar kiritish
- baholash (o‘zaro, o‘z-o‘zini hurmat qilish)
- o“quvchilar tomonidan allaqachon o‘rganilgan va yana nimani o‘rganish kerakligini taqsimlash;
- o‘zlashtirish sifati va darajasini bilish;
- ish natijalarini baholash;
- o‘zini o‘zi boshqarish kuchlari va o“z kuchini ixtiyoriy ravishda harakat qildirish bilan to‘siqlarni yengib o‘tish uchun safarbar qilishdir.¹

bu jarayonlarda biz o‘qituvchi va talaba orasidagi munosabatlarning moslashuvchanligiga ko‘proq ahamiyat berishimiz va o‘qitish texnologiyalari birlamchi vositalar ekanligini unutmasligimiz lozim.

¹ Azamat Ruzvonovich Raxmonov. Maktab o‘quvchilarida milliy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy vositalari. academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda asosan ular o‘qiydigan, o‘rganadigan barcha turdagи ma’lumotlar (kitoblar, ommaviy-axborot vositalari, muloqot jarayonlari, bevosita ularga o‘qitiladigan fanlar) - shakllanadigan yangicha tasavvurlar, yangicha tarbiya va yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda estetik tarbiya usullarini qo‘llash o‘zining samarali natijasini beradi. Milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an'analar), xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, ilm-fan hamda san’at (xalq hunarmandchiligi, milliy me’morchilik, rassomlik, qo‘schiqchilik, raqs san’ati va san’atning boshqa turlari (kino, teatr, sirk, milliy dorbozlik) kabi milliy-madaniy meros namunalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish ular tomonidan milliylik, milliy turmush tarzi va milliy o‘zlik xususiyatlarining anglanishiga xizmat qiladi. Bu uchun biz tadqiqotlarni amaliyotda qo‘llashimiz va tadqiqotlarni uzlucksizligini ta’minlashimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
2. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогических технологий. - М: 1989. – 192 с
3. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008
4. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘lash yo‘llari. - T.: TDIU, 2005. 60-bet.
5. Ya.A.Komenskiy. Buyuk didaktika. O‘qituvchi nashriyoti, 1975. 134-bet
6. A.T. Teshayev, O.Boboqulov. Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o‘qitilishi (Is’hoqxon Ibrat va munavvarqori tashkil etgan maktablar

misolida). scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601. 276-283-b

7. A.T. Teshayev, O.Boboqulov. Turkistonda yangi usul mакtablarining faoliyati (XIX asr oxiri-XX asr boshlari) scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601. 269-275-b

8. Maxmudova Dilorom Inoyat qizi, Isabayeva Dilfuza Komiljonovna, Holiqova Madina Komilovna. Iqtidorli o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda estetik tarbiya usullarini qo‘llash. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил No 4)

9. Azamat Ruzvonovich Raxmonov. Maktab o‘quvchilarida milliy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy vositalari. academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.

10. A.T. Teshayev, M, Bahodirova. The role of progressive intellectuals in the teaching of social sciences in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century (in the example of the jadids of bukhara). International journal of philosophical studies and social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 3, Issue 3 (2023).